



SHARQSHUNOSIK  
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ  
ORIENTAL STUDIES

3

2024

ILMIY JURNAL  
ISSN 2181-8096



# SHARQSHUNOSLIK ВОСТОКОВЕДЕНИЕ ORIENTAL STUDIES

---

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY  
OF ORIENTAL STUDIES

№ 3, 2024



Jurnal O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi ro'yxatidan  
qayta o'tgan (№ 02-0053, 26.09.2014-y – ISSN 2181 – 8096)

**Bosh muharrir – Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna**  
*filologiya fanlari nomzodi, professor*

**Tahrir hay'ati**

|                         |                                                                                    |
|-------------------------|------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>D. Sayfullayev</b>   | <i>tarix fanlar doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)</i>                 |
| <b>D. Muxiddinova</b>   | <i>filologiya fanlari doktori (mas'ul kotib)</i>                                   |
| <b>A. Mannonov</b>      | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i>                                       |
| <b>R. Xodjayeva</b>     | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i>                                       |
| <b>Sh. Shomusarov</b>   | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i>                                       |
| <b>Q. Omonov</b>        | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i>                                       |
| <b>U. Muxibova</b>      | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i>                                       |
| <b>X. Xamidov</b>       | <i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>                           |
| <b>B. Abdulhalimov</b>  | <i>tarix fanlari doktori, professor</i>                                            |
| <b>A. Xodjayev</b>      | <i>tarix fanlari doktori, professor</i>                                            |
| <b>M. Is'hoqov</b>      | <i>tarix fanlari doktori, professor</i>                                            |
| <b>A. Doniyorov</b>     | <i>tarix fanlari doktori, professor</i>                                            |
| <b>X. Fayziyev</b>      | <i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>                                              |
| <b>D. Xodjimuratova</b> | <i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>                                |
| <b>Sh. Yovqochev</b>    | <i>siyosiy fanlar doktori, professor</i>                                           |
| <b>N. Abdullayev</b>    | <i>siyosiy fanlar doktori, dotsent</i>                                             |
| <b>A. Vahobov</b>       | <i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>                                          |
| <b>R. Abdullayev</b>    | <i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>                                          |
| <b>I. Mavlanov</b>      | <i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>                                          |
| <b>R. Bahodirov</b>     | <i>falsafa fanlari doktori, professor</i>                                          |
| <b>E. Izzetova</b>      | <i>falsafa fanlari doktori, professor</i>                                          |
| <b>G. Glizon</b>        | <i>AQSHning New Mexico universiteti professori</i>                                 |
| <b>A. Shonazarova</b>   | <i>AQSHning Kolumbiya universiteti professori</i>                                  |
| <b>Ono Masaki</b>       | <i>Yaponiyaning Tsukuba universiteti professori</i>                                |
| <b>Li Dji In</b>        | <i>Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar universiteti professori</i>          |
| <b>V. Mesamed</b>       | <i>Isroilning Quddus universiteti professori</i>                                   |
| <b>A. Gurer</b>         | <i>Turkiyaning Anqara universiteti professori</i>                                  |
| <b>A. Vorobyov</b>      | <i>Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi</i>     |
| <b>G. Avda</b>          | <i>Misr Arab Respublikasining Helvon universiteti professori</i>                   |
| <b>S. Kurayim</b>       | <i>Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>                           |
| <b>A. Tohir</b>         | <i>Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori</i> |
| <b>H. Baydemir</b>      | <i>Turkiyaning Otaturk universiteti professori</i>                                 |

**Nashrga tayyorlovchilar:**

**J. Ismoilov, A. Ziyodov, Sh. Askarova, L. Xamdamzoda, G. Xushnazarova**

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi  
lozim bo'lgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga O'zbekiston Respublikasi  
Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz  
web-site: www.tsuos.uz



## MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

### ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE

|                                                                                                          |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <i>Ochilov O.</i> Hu Shi til islohotlarining zamonaviy xitoy she'riyati shakllanishidagi ahamiyati ..... | 5  |
| <i>Yuldasheva X.</i> Milliy identifikatsiya arab adabiy personaji timsolida .....                        | 16 |
| <i>Sharaxmetova M.</i> “Boburnoma”ning urducha tarjimasida milliy koloritning berilishi .....            | 22 |
| <i>Kabirova N.</i> Rahnavard Zaryob asarlarida hayotni badiiy aks ettirish tamoyillari.....              | 31 |

### TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK //

### ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ //

### LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

|                                                                                                                    |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <i>Sodiqov Q.</i> Qoraxoniylar davri asarlarida ishlatilgan tilshunoslik atamalari.....                            | 44 |
| <i>Mirziyotov Sh.</i> Terminologiyada termin yasash maktablarining yuzaga kelish omillari.....                     | 63 |
| <i>Umarova M. Yakubova Sh.</i> Tarjimashunoslikda “Milliy kolorit” tushunchasi masalalari .....                    | 70 |
| <i>Jumaniyozov M.</i> «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» va «Al-Unmuzaj» asarining qiyosiy tadqiqi.....             | 77 |
| <i>Abdurahmonova M.</i> Hindistonda fanlarni o'qitishda interfaol usullarni qo'llash tajribasi .....               | 89 |
| <i>G'iyosov B.</i> Xitoy ta'lim muassasalari tomonidan tuzilgan ta'lim shiorlarining leksik-semantik tasnifi ..... | 98 |

### MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK //

### ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ //

### SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

|                                                                                                 |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <i>Karimov A.</i> Xitoyning amaliy san'ati Dzyandjining rivojlanish bosqichlari.....            | 110 |
| <i>Faromarzi F, Vohidova M.</i> Mirzo Muhammad Rahimbek va uning “Esdaliklar” asari .....       | 119 |
| <i>Xubbaliyeva M.</i> “Du Huanning borgan joylari xotirasi” sayohatnomasida Markaziy Osiyo..... | 135 |

### XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT //

### МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА //

### INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

|                                                                                                                                  |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <i>Ulug'ov N., Saidolimov S.</i> Siyosiy nutq va uning jamoatchilikka ta'siri .....                                              | 148 |
| <i>Sadibaqoyev H.</i> AQSHning Janubiy-Sharqiy Osiyodagi ittifoqchilari va ular bilan munosabatlarning strategik ahamiyati ..... | 157 |



|                                                                                                                                                         |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <i>Abdullayev J.</i> Markaziy Osiyo davlatlari diplomatik munosabatlarining zamonaviy tarixi.....                                                       | 170 |
| <i>Güngör Şahin, İsmail Polat.</i> The Role of Energy Security in the Case of Kazakhstan – People’s Republic of China Relations.....                    | 182 |
| <i>Normayeva M.</i> Siyosiy ishtirok va ayollarning siyosiy faolligiga ta’sir etuvchi omillar (Turkiya Respublikasi misolida) .....                     | 198 |
| <i>Medihanur Argali.</i> Cultural Diplomacy: Fraternal Ties Between Uzbekistan and Azerbaijan.....                                                      | 210 |
| <i>Bekdurdiyeva G.</i> Xalqaro munosabatlarda “Yashil nazariya” asoslari va unga doir yondashuvlar.....                                                 | 230 |
| <i>Gafarov I.</i> Strategic approaches of Russia and China vis-a-vis Central and South Asia .....                                                       | 244 |
| <i>Xodjayev L.</i> Xalqaro munosabatlar sohasi mutaxassislarini kasbiy tayyorlashda xorijiy tilni o’rgatishning xususiyatlari.....                      | 256 |
| <i>Abdurasulov J.</i> Xalqaro munosabatlarda geosiyosiy vaziyatlar hamda Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni ta’minlashning zamonaviy holati ..... | 269 |

#### FALSAFA // ФИЛОСОФИЯ // PHILOSOPHY

|                                                                                                                      |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <i>Mavkulova M.</i> Sharq mutafakkir-allomalari shaxs madaniy-ma’naviy ehtiyojlarini shakllantirish to’g’risida..... | 285 |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|



Насилов 1974 – Насилов В.М. Язык тюркских памятников уйгурского письма XI–XV вв. – Москва, 1974.

Sodiqov 2016 – Sodiqov Q. Ilk va oʻrta asrlarda yaratilgan turkiy hujjatlar. – Toshkent, 2016.

Sodiqov 2020 – Sodiqov Q. Eski oʻzbek yozma adabiy tili. – Toshkent, 2020.

### MIRZIYOTOV SHUHRAT

Filologiya fanlari boʻyicha falssafa doktori, dotsent, TDSHU

## Terminologiyada termin yasash maktablarining yuzaga kelish omillari

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XX asrning 30-yillarining boshida Yevropada yuzaga kelgan terminologik maktablarning shakllanishi borasida fikr yuritiladi. Maqolada mustaqil terminologiya maktablarining shakllanishiga turtki boʻlgan uchta yirik terminologiya maktablari haqida yoritilgan. Shuningdek, terminologiya maktablarining gʻoyaviy qarashlari va terminlarni oʻrganish boʻyicha tanlagan maqsadlariga koʻra bir biridan farqlari koʻrsatib berilgan.

**Kalit soʻz va birikmalar:** termin, terminologiya, terminologiya maktablari, Vena maktabi, Praga maktabi, Rossiya maktabi.

**Abstract.** The report is devoted to forming terminological schools in Europe at the beginning 30 th years of XX centure. There was studying 3 schools, which had perform for formation some other independent schools. On the basis of scientific research can consist of relationship terminological schools and their principles.

**Keywords and expressions:** term, terminology, terminological schools, Vienna school, Praga school, Rossian school.

**Аннотация.** Данная статья посвящена вопросам формирования терминологических школ в Европе в начале 30-х годов XX века. В ней изучена деятельность 3 терминологических школ, которые послужили толчком для образования ряда других самостоятельных школ. На основе исследования делаются выводы о взаимоотношении терминологических школ и их принципов.

**Ключевые слова:** термин, терминология, терминологические школы, Венская школа, Пражская школа, Российская школа.

XX asr ilmiy-texnika davri boʻldi. Turli ixtisoslikka oid sohalar rivojlandi, ular bilan bogʻliq atamalar son jihatidan ortdi. Zamon talabi bilan yangi hosil boʻlayotgan tushuncha va hodisalarga terminlar yaratish va ularni standartlashgan holatda amaliyotga tatbiq qilish kun vazifasiga aylanib bordi. Mazkur holat, avvalo, tilshunoslik fani oldiga ulkan vazifalarni qoʻydi.

Tilshunoslikda XX asr boshlarigacha faollik koʻrsatgan qator lisoniy omillarga (yosh grammatikachilar taʼlimotiga, naturalizm va psixologizm kabi yoʻnalishlarga, ularning qarashlariga hamda gʻoyalariga) zid boʻlgan yangi taʼlimot–





sotsiologik ta'limot maydonga keldi<sup>1</sup>. Mazkur ta'limot strukturalizmning alohida bir yo'nalishi sifatida o'zini namoyon qilishi, F. de Sossyurning ilgari surgan nazariyasi asosida yuzaga keldi. Hozirgi davrda strukturalizmning asosiy maktablari uchta bo'lib, natijada terminologiya maktablarining shakllanishiga katta turtki bo'lgan<sup>2</sup>.

XX asrning 30-yillarida Yevropa mamlakatlarida uchta yirikterminologiya maktabi kuzatildi: Avstriyada "Vena maktabi", Rossiyada "Rossiya maktabi" va Chexoslovakiyada "Praga maktabi". Manbalarning guvohlik berishicha, Vena maktabi asosida Avstro-Germaniya, Ingliz, Kanada va Chexiya maktablari, Rossiya maktabi asosida Rossiya, O'zbekiston, Ukraina, Ozarbayjon, Latviya, Litva, Estoniya kabi bir qator mustaqil terminologik maktablar yuzaga kelgan. Sanab o'tilgan maktablarning asosiy g'oya-yo'nalishlari Sovet maktabining g'oyalariga mos kelganligi uchun ham ular Sovet maktabi yo'nalishlari sifatida talqin qilinadi<sup>3</sup>. Praga maktabi qoshida esa Germaniya, Slovakiya va Skandnaviya terminologiya maktablari shakllangan. Oxirgi o'n yillikda Kanada terminologik maktabi mavjudligi haqida xabar berilmoqda<sup>4</sup>. Har birining g'oyaviy qarashlari bir-biridan farq qilishi bilan birga ularning tanlagan obyektlari yagona–terminlar bo'lgan. Mazkur maqolada dunyo tilshunosligida termin yasash maktablari va ularning asosiy g'oyalari tavsifiy yoritilgan.

*Vena maktabi.* XX asrning boshlaridanoq, Germaniya muhandislik akademiyasi faollari muhandislik uchun lozim bo'lgan soha atamalarini o'rganib chiqish lozimligi haqidagi taklif bilan chiqishadi. Tilshunos va faylasuf olimlar "Nemis muhandislari birlashmasi"–VDI ("Verein Deutscher Ingeniure") kabi muhandislik tashkilotlari bilan birgalikda texnik terminlar ishlanmasini ishlab chiqishga kirishdilar. Mazkur holat yosh muhandis olim Ye. Vyusterni ham befarq qoldirmadi. 1931-yilda Shtutgardda Ye. Vyuster "Internationale Sprachnormung in der Technik"<sup>5</sup> ("Texnologiyada tilning baynalminal standarti") nomli doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Uning askariyat ishlari amaliyot bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham olimning tadqiqot natijalari terminologik tizimning hosil bo'lishi va tartibga solinishi borasidagi masalalarning hal qilinishiga o'z hissasini qo'shgan.

<sup>1</sup>Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –T., 2013. –B. 100.

<sup>2</sup>*Masalan qarang:* Temmerman R. Questioning the univosity ideal. The difference between socio-cognitive terminology and traditional terminology. – Amsterdam, Rodopi, 2000. – P.3.

<sup>3</sup>Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: вопросы теории. –М., Книжный дом "ЛИБРОКОМ" 2012. Изд. 6-е. – С. 6.

<sup>4</sup>Temmerman R. Questioning the univosity ideal. The difference between socio-cognitive terminology and traditional terminology. – Amsterdam, Rodopi, 2000. – P.3.

<sup>5</sup>Wüster E. Internationale Sprachnormung in der Technik. Besondere in der Electrotechnik. 3. Edition, Romanistischer Verlag, Bonn, 1931.



Ye. Vyuster o'zining "Texnikada tilning xalqaro standartlari"<sup>1</sup> nomli monografiyasida terminologiyani alohida fan sifatida o'rganish lozimligini qayd etadi. Mazkur ish orqali muallif ilk bor terminologiya tilshunoslikning bir tarmog'i ekanligini, terminlarning so'zdan farqini, terminlarni o'rganishning ilmiy metodlarini, termin qat'iy nazariy qoidalarga bo'ysunishi, terminlardan foydalanish qulay bo'lishi uchun ularni standartlashtirish lozimligi haqidagi ilmiy-nazariy asoslarni ko'rsatib o'tadi<sup>2</sup>. Ye. Vyusterning ushbu xulosalari tilshunoslik fanida F. de Sossyurning ilmiy qarashlarining davomi sifatida talqin qilinadi<sup>3</sup>.

"Общая терминология: терминологическая деятельность" kitobining guvohlik berishicha, terminologiyaning shakllanishi bir tomondan, ilmiy-texnika hamda ishlab chiqarish sohalaridagi tushuncha va jarayonlarni standart nomlash ehtiyojining paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan, birinchi va ikkinchi jahon urushi natijasida tibbiyot va dori-darmon atamalarini baynalmillallashtirish bilan bog'liq bo'lgan<sup>4</sup>. Mazkur g'oya butunjahon olimlarining diqqat markaziga yo'naltirildi. Dunyo hamjamiyati o'rta tashlangan bu fikrni qo'llab-quvvatlashlari natijasida bir qator standartlashtirish tashkilotlari yuzaga kelgan<sup>5</sup>.

Ye. Vyuster keyinchalik, terminlarga oid quyidagi umumiy konsepsiyani taklif qilgan:

- 1) terminologiya termindan avval konsepsiyani o'rganadi;
- 2) konsepsiyalar aniq va qat'iy belgilanmog'i lozim;
- 3) konsepsiyalar an'anaviy ta'rifda aniqlikka ega bo'lishi kerak;
- 4) termin doimo (nazarda tutilgan) tushunchani anglatishi kerak;
- 5) termin ham, konsepsiya ham sinxron planda o'rganilishi kerak<sup>6</sup>.

<sup>1</sup>Wster E. Internationale Sprachnormung in der Technik. Besonders in der Elektrotechnik. 3. Edition, Romanistischer Verlag, Bonn, 1931.

<sup>2</sup>Qarang: Wster, E. Einfhrung in die Allgemeine Terminologielehre und terminologische, lexikographie. 3. Edition, Romanistischer Verlag, Bonn 1979., Kohler H. The general theory of terminology: a literature review and a critical discussion. International business communication, Copenhagen business school, 2009.

<sup>3</sup>Kohler H. The general theory of terminology: a literature review and a critical discussion. International business communication, Copenhagen business school, 2009 .P.13.

<sup>4</sup>Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: терминологическая деятельность. –М., Едиториал УРСС, 2005. Изд. 2-е. – С. 6.

<sup>5</sup>Jumladan, 1926-yilda (1942-yilgacha faoliyat yuritgan) "Xalqaro standartlar assotsiatsiyasi" – ISA (International Association for Standardization) tashkil etildi. 1946-yilda xuddi shu tashkilot – ISO (International Organization for Standardization) nomi ostida o'z faoliyatini davom ettirgan. 1931-yilda Yevropada "British Standard Institution" ("Britaniya standartlashtirish instituti") tashkil etiladi.

<sup>6</sup>Wster E. Internationale Sprachnormung in der Technik. Besonders in der Elektrotechnik. 3. Edition, Romanistischer Verlag, Bonn, 1931. – P. 17.





Olimning ta'kidlashicha, terminologiyaning asosiy va bosh maqsadi—terminga oid konsepsiyalarni standartlashtirishdan iborat. Olim terminologiyani struktur tilshunoslik bilan parallel ravishda qarash kerakligini ta'kidlab, terminologiyani alohida fan sifatida ajratib ko'rsatish tarafdori bo'lgan.

Vena maktabining g'oyasi bo'yicha, terminologiyada konsepsiya termindan avval, eng oliy o'rinda turadi. Bu terminologik maktabning "terminologiyani o'rganish faqat sinxron planda amalga oshirilishi kerak", degan g'oyasi Rossiya, Praga maktablarini, shuningdek, Kanada markazining ham jiddiy e'tiroziga sabab bo'lgan.

Vena terminologik maktabi "har qanday termin asosida konsepsiya yotishi, ideal terminning ma'no jihatidan tushunarli va baynalminal xarakterga ega bo'lishi" haqidagi fikrni ilgari surgan.

Ye. Vyuster avvaliga universal g'oyalar asosida yagona terminologik maktab yaratmoqchi bo'ldi. Ammo uning kiritgan fikrlari barcha tillar terminologiyasi uchun ham dasturulamal bo'la olmasdi. Natijada ilk terminologik maktab sifatida fanda o'zini namoyon qilgan—Vena terminologik maktabi yuzaga keldi.

*Praga maktabi.* Praga terminologik maktabi F. de Sossyur ko'rsatib bergan struktur tilshunoslik asosida shakllangan bo'lib, termin yasashiga muvaffaqiyatli hissasini qo'shgan. Vena maktabi asoschisi Ye. Vyusterga nisbatan Praga maktabi asoschisi J. Seyjer termin hosil bo'lishining Praga maktabiga xos quyidagi mukammal konsepsiyasini keltirgan:

- 1) termin nazarda tutilayotgan tushunchani to'liq ifodalashi, mantiqan tushunarli va ravshan bo'lishi;
- 2) termin tilda mavjud so'zlardan hosil qilinishi kerak, agar termin o'zlashma bo'lsa, unda muvofiqlashtirilgan orfografiyadan foydalanish lozim;
- 3) termin so'z yasashi qoidalariga butunlay mos kelishi;
- 4) termin yasama bo'lishi;
- 5) terminning takrori bo'lmasligi (ya'ni, tilda mazkur terminning bir vaqtda o'zlashmasidan ham foydalanmaslik);
- 6) termin qisqa va tushunarli bo'lishi;
- 7) terminning sinonimi bo'lmasligi;
- 8) termin faqat bir ma'noga ega bo'lishi;
- 9) termin kontekstdan tashqari holatda ham o'z ma'nosiga ega bo'lishi, tushunarli bo'lishi lozim<sup>1</sup>.

Terminologik tadqiqot, avvalo, ilmiy va texnik tekstlarning tahlili asosida shakllangan. Praga maktabi ham boshqa terminologik maktab va markazlar singari konsepsiya, termin, terminlarning o'zaro aloqasi, konsepsiya va termin sistemasi, tilning terminologiya bilan bog'liqlik jihatlarini o'rganadi.

<sup>1</sup>Sager, J.C. A Practical Course in Terminology Processing. Amsterdam: J. Benjamins, 1990. —R. 4.



Praga terminologik maktabi ham konsepsiyani o'rganishni terminologik tahlil uchun boshlang'ich nuqta hisoblaydi. Praga maktabi F. de Sossyur belgilagan g'oyaga hamohang ravishda "termin–konsepsiya va formadir", degan fikr bilan ish olib borgan. Shuningdek, terminologiyani yagona obyekti *til* ekanligini, terminlarni standartlashtirish *eng oliy mezon* ekanligini ta'kidlaydi.

Praga maktabining fikricha, ilmiy til, professional til, maxsus soha tili–funksional sistemadir. Termin esa mazkur funksional sistemaning kichik bir qismi. Buning sababi, til birliklarining har biri muayyan funksiyaga egaligi, ularning tilda (nutqda) muayyan vazifani bajarishi yotadi. Demak, terminologiya funksional sistemaning bir bo'lagidir. Praga maktabining fikricha, terminologiya F. de Sossyur belgilagandek, ham sinxron, ham diaxron aspektida o'rganilishi lozim.

Chexoslovakiyada Praga maktabi namoyandalarining tashabbusi bilan Chexiya tili Fanlar Akademiyasi instituti (Institute of Czech Language of the Academy of Sciences) qoshida "Chexoslovakiya terminlarni standartlashtirish komiteti" (Czechoslovakian Standards Committee for terminology) shakllantirilib, unda terminlarni standartlashtirish ishlari olib borilgan<sup>1</sup>.

Texnik va texnologik taraqqiyot davrida inson ongi va aqlu zakovati orqali erishilayotgan yutuqlar milliy va boshqa tillarda birdek standartlashtirilgan termin holatida bo'lishi haqidagi fikr Praga maktabining asosiy tayanch g'oyasi bo'lgan. Shuningdek, Praga maktabining boshqa terminologik maktablardan asosiy farqi, bu maktab termin qaysi tilda vujudga kelsa, boshqa tillarda ham xuddi shunday holda ishlatilishi kerak, bu terminga o'zlashayotgan tilda ekvivalent berish noto'g'ri, shundagina terminlar standartlashadi va baynalminallashadi, degan fikrni ilgari surgan.

*Rossiya maktabi.* Terminologiyani yuzaga kelishi rus olimlari E. Drezin va D. S. Lotteni ham befarq qoldirmadi. 1932-yilda D. S. Lottening texnik terminlarni unifikatsiyalash va standartlashtirishga oid maqolasi e'lon qilindi<sup>2</sup>. 1935-yilda E. Drezin "Terminlardan foydalanishning xalqaro ishlanmasi"<sup>3</sup> nomli monografiyasini keng ilmiy jamoatchilikka taqdim etdi. Olimlarning terminologiyani o'rganish bo'yicha olib borgan tadqiqotlari natijasida Rossiya terminologik maktabi yuzaga keldi.

Rossiya maktabi asosan baynalminal terminlar yaratilishi tarafdori bo'lgan. Bu terminologik maktabning fikriga ko'ra, terminologik faoliyat "tushuncha" natijasida yuzaga keladi. Vena va Praga terminologik maktablariga nisbatan Rossiya maktabida terminlarni standartlashtirishga jiddiy e'tibor qaratilgan<sup>4</sup>.

<sup>1</sup>H. Felber. Terminology Manual. – Paris, UNESCO. InfoTerm, 1984.P. 36.

<sup>2</sup>Лотте Д. С. Упорядочение технической терминологии // Сирена. – 1932. № 3.

<sup>3</sup>Drezen E. Priproblemo de internaciigo de Science Teknikaterminaro. Moscow (Standartizacija I Rasionalizacija). –Amsterdam (Ekrelo), 1935.

<sup>4</sup>Temmerman R. Towards new ways of terminology description. The sociocognitive approach. – Amsterdam, New Netherland, 2000. – P. 25.



Quyidagi asosiy g'oyalar Rossiya maktabining yo'nalishini belgilagan:

- 1) ilmiy-texnik terminologiyaning nazariyasini ishlab chiqish uchun inson ongu zakovati orqali vujudga kelgan maxsus so'zlarning shakllanishi va tilda ishlatilishini o'rganish;
- 2) ishlatilayotgan terminlarning har biriga aloqador bo'lgan umumiy jihatlarni ko'rib chiqib, ularni tizimlashtiradigan maxsus konsepsiyalarni ishlab chiqish;
- 3) yangi terminlarni yaratish (yasash) bo'yicha eng maqbul usul va yo'riqlarni aniqlash;
- 4) mavjud terminologik sistemani rivojlantirish, mukammallashtirish;
- 5) barcha sohalar terminologiyasi uchun umumiy bo'lgan universal nazariyalarni axtarish va qat'iy qilib belgilab qo'yish;
- 6) mustaqil tadqiqotchi va terminologiya bilan ishlovchi maktablarning nazariy va amaliy faoliyatlarini umumiyashtirish lozim<sup>1</sup>.

Umuman olganda, F. de Sossyurning tilshunoslik fani uchun taqdim etgan fikrlari va g'oyalari har qanday terminologiya maktabi va markazi uchun dasturulamal vazifasini bajargan. Har bir terminologiya maktabi termin yaratish va uni standartlash bo'yicha bir qator takliflar kiritgan. Shunga ko'ra, maktablar o'rtasidagi o'zaro o'xshash va tafovut qirralari ko'zga tashlanadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Vena, Praga va Rossiya terminologik maktablarining har uchchalasi va Kanada markazi struktur tilshunoslik asosida shakllangan va u asosida bugungi kun ko'rinishini olgan.
2. Vena, Praga va Rossiya terminologiya maktabi hamda boshqa terminologik markazlar quyidagi parametrlarga suyanishadi:
  - a) konsepsiya;
  - b) termin;
  - s) konsepsiya va terminlarning o'zaro aloqasi.
3. Har uchchala terminologik maktab uchun ham *konsepsiyani o'rganish* terminologik tahlil uchun boshlang'ich nuqta hisoblansa, Kanada markazi uchun *termin* terminologik tahlilning nuqtasidir.
4. Struktur tilshunoslikda F. de Sossyur "*til mohiyat emas, balki formadir*",-degan g'oyani ilgari surgan. Praga va Rossiya maktablari ushbu g'oyaga tayangan holda terminga ham xuddi shunday ta'rif beradilar; ya'ni "*termin mohiyat emas, balki konsepsiya va formadir*",-deydilar.
5. Praga va Rossiya maktabi F. de Sossyurning tilshunoslik uchun kiritgan taklifini terminologiya uchun ham xos sanaydi; ya'ni, Sossyur *tilshunoslikning birdan-bir haqiqiy obyekti til*, demak, tilni psixologiya, mantiq, fiziologiya kabi fanlar nuqtayi nazaridan emas, balki bevosita tilshunoslik nuqtayi nazaridan tekshirish

<sup>1</sup>Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: терминологическая деятельность. –М., Едиториал УРСС, 2005. Изд. 2-е. – С.11.



lozim,-deb hisoblasa, Praga va Rossiya terminologik maktablari “terminologiyaning yagona obyekti termin, shuning uchun ham boshqa yondosh fanlar orqali emas, aynan terminologiya orqali o‘rganish” tarafdori bo‘lgan.

6. Praga va Sovet terminologiya maktablari uchun terminlarni standartlashtirish eng oliy mezon bo‘lgan. Vena terminologiya maktabi esa faoliyat nomini yoki kasbni nomlash va uni tilda qo‘llash bo‘yicha bir qator tavsiyalarni ko‘rsatgan. Kanada terminologiya markazi uchun esa Kanadada fransuz terminlarini saqlab qolish asosiy maqsad bo‘lgan.

7. Vena maktabi terminologiyani alohida fan sifatida ajratib ko‘rsatish tarafdori bo‘lgan.

8. F. de Sossyur tilda ikki aspektni: sinxroniya va diaxroniyani farqlaydi. Vena maktabi terminologiyani faqat sinxron aspektda o‘rganish maqsadga muvofiqligi haqida taklif kiritgan. Mazkur fikrni Kanada markazi ham ma’qullagan. Ammo Praga va Rossiya maktablari terminologiyani ham diaxron, ham sinxron aspektda o‘rganish kerakligi haqida xabar beradi.

Xulosa qilib aytganda, XX asrning boshlarida tilshunoslikda yangi ta’limot-strukturalizmning yuzaga kelishi terminologiya fanining shakllanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Shuningdek, ilmiy-texnikaning taraqqiyoti terminlarga bo‘lgan ehtiyojning ortishiga ham sababchi bo‘lgan. Natijada Yevropada Vena, Praga, Rossiya terminologiya maktablari va bir qator mustaqil terminologiya markazlari vujudga kelgan. Bu maktab va markazlarning g‘oyaviy qarashlari va terminlarni o‘rganish bo‘yicha tanlagan maqsadlariga ko‘ra bir-biridan farqlangan.

Vena maktabi asoschisi Ye. Vyuster avvaliga universal g‘oyalar asosida yagona terminologik maktab yaratmoqchi bo‘ldi. Ammo bir tomondan, nemis, ingliz, fransuz tillari, boshqa tomondan rus va Kanadadagi fransuz tili uchun dasturulamal bo‘ladigan g‘oyalarni taqdim eta olmadi. O‘z-o‘zidan terminologik maktablar shakllanib bordi. Rossiya maktabi va Kanada markazi bora-bora tajribali maktablarga aylanib borgan. Praga maktabining maqsadi terminlarni baynalminallashtirish bo‘lgan. Rossiya maktabining asosiy ko‘zlagani terminlarni standartlashtirish va baynalminallashtirishdan iborat bo‘lgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –T., 2013. 309 b.
2. Лотте Д. С. Упорядочение технической терминологии.// Сирена. – 1932. № 3.
3. Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: вопросы теории. –М., Книжный дом “ЛИБРОКОМ” 2012. Изд. 6-е. 247 с.
4. Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: терминологическая деятельность. –М., Едиториал УРСС, 2005. Изд. 2-е. 288 с.



5. Drezen E. Problemo de internaciigo de Science Teknikaterminaro. Moscow (Standartizacija I Rasionalizacija). –Amsterdam (Ekrelo), 1935. 132 s.
6. H. Felber. Terminology Manual. – Paris, UNESO. InfoTerm, 1984. 426 r.
7. Kohler H. The general theory of terminology: a literature review and a critical discussion. International business communication, Copenhagen business school, 2009. 43 p.
8. Temmerman R. Questioning the univosity ideal. The difference between socio-cognitive terminology and traditional terminology. – Amsterdam, Rodopi, 2000. 40 p.
9. Temmerman R. Towards new ways of terminology description. The sociocognitive approach. – Amsterdam, New Netherland, 2000. 352 p.
10. Wuster E. Internationale Sprachnormung in der Technik. Besonders in der Elektrotechnik. 3. Edition, Romanistischer Verlag, Bonn, 1931. 106 p.
11. Wuster E. Einfuhrung in die Allgemeine Terminologielehre undterminologische, lexikographie. 3. Edition, Romanistischer Verlag, Bonn 1979., 213 p.

#### **UMAROVA MOHIRA**

*Katta o'qituvchi, PhD, TDSHU*

#### **YAKUBOVA SHAHNOZA**

*Katta o'qituvchi, TDSHU*

### **Tarjimashunoslikda “Milliy kolorit” tushunchasi masalalari**

***Annotatsiya.** Tarjimashunoslik fani uzoq yillik o'tmishga borib taqalsada, u aniq bir fan sifatida rivojlanayotganiga u qadar ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsa-da, ammo tarjimashunolsik bo'yicha nazariy qarashlar, dalillar fikr va mulohazalar ancha oldin ham mavjud edi.*

*Mazkur maqolada ham tarjimashunoslik fanining ajralmas bo'ladi, hozirgi davrdagi eng dolzarb mavzulardan biri bo'lgan “milliy kolorit” tushunchasi va unga turli davrlarda yashab ijod qilgan hamda hozirgi kunda ham aynan mazkur mavzuda tadqiqot olib borayotgan mashhur tilshunos hamda tarjimashunos olimlar tomonidan keltirilgan ta'riflar, qarashlar haqida so'z boradi. Ya'ni, olimlar milliylik deganda o'zi umuman, nima tushunilishi lozim ekanligini ta'kidlaydilar.*

*Ushbu maqola orqali mazkur mavzu uzoq yillar avval ham dolzarb bo'lgani va o'sha davrlarda ham olimlar milliylik borasida tadqiqot qilgani aniqlandi.*

*Shu bilan bir qatorda, o'zbek, boshqa Sharq va G'arb tarjimashos hamda tilshunos olimlarining mazkur mavzuga bag'ishlagan tadqiqot ishlaridan milliy koloritga berilgan ta'riflar keltiriladi.*

*Bundan tashqari, ushbu maqolada milliy koloritning ajralmas bo'ladi, uning eng asosiy tarkibiy qismi bo'lgan “tarixiy kolorit” tushunchasi haqida ham ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, olimlar tomonidan keltirilgan ta'rif va qarashlar orqali asoslanadi.*



Bosishga ruxsat etildi 25.09.2024. Bichimi 1/16. Shartli b.t. 18, 5.  
100 nusxada, original-maket asosida bosildi.  
Buyurtma № Bahosi kelishilgan narxda.

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining  
kichik bosmaxonasida bosildi.  
Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20.